



FARG'ONA VILOYAT  
STATISTIKA  
BOSHQARMASI

**FARG'ONA VILOYATIDA  
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI  
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**

## **FARG'ON VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI**

Umumiy o'rta ta'limning muddati 11 yil bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.


Umumiy o'rta ta'lim uch bosqichdan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.



Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab, umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, ijod maktabi, Prezident maktabi, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internat, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat, respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi.


# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalari soni, birlikda (o'quv yili boshiga)




Fagona viloyatda faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 2021/2022 o'quv yili boshiga **987** tani tashkil etib, 2018-yilga nisbatan **1,06** taga ko'paygan.

## Tumanlar kesimida umumta'lim muassasalari soni, birlikda (2021/2022 o'quv yili boshiga)



# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni, birlikda (o'quv yili boshiga)




Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ta'lim faoliyati davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

So'nggi yillarda ta'limning ushbu turiga qaratilayotgan e'tibor sababli nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Birgina 2021-yilning o'zida faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni **22** taga ko'paygan, ushbu raqamlarni 2018-yilga nisbatan taqqoslansa **2,4** taga ortganini kuzatish mumkin.

## Nodavlat umumta'lim tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonining, boshqa tumanlarga nisbatan yuqoriligi bo'yicha Farg'ona sh, Qo'qon sh, Quvasoy sh, Rishton, O'zbekiston tumanlari alohida o'ringa ega.

# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalarining turlari bo'yicha taqsimlanishi (2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)


Umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich maktablar, umumiy o'rta maktablar va boshqalar.

2021/2022 o'quv yili boshiga **987** ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, **8** ta boshlang'ich maktablar va **10** ta boshqa muassasalar faoliyat yuritmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami **681778** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Shundan boshlang'ich ta'lim muassasalarida **1435** mingta o'quvchi, boshqa ta'lim muassasalarida **2917** ming o'quvchi ta'lim olmoqda.



## Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni, ming kishi (2021/2022- o'quv yili boshiga)



Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda **483899** ming nafarga ko'paygani yoki **1,40** % ga oshgani kuzatildi.

# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning tumanlar kesimida taqsimlanishi (2021/2022 o'quv yili boshiga ming kishi)

Farg'ona sh	59894
Qo'qon sh	48016
Quvasoy sh	15230
Marg'ilon sh	40378
Oltiariq t	37057
Bag'dod t	33455
Beshariq t	40397
Buvayda t	44049
Dang'ara t	41637
Quva t	41959
Qo'shtepa t	41364
Rishton t	36223
So'x t	17734
Toshloq t	31240
O'zbekiston t	42053
Uchko'rik t	36175
Farg'ona t	29903
Furqat t	20374
Yozyovon t	20707

2021/2022 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona sh. (**59894** ming nafar), Qo'qon sh. (**48016** ming nafar) hamda Buvayda tumanlarida (**44049** ming nafar) qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng kam ko'rsatkich Quvasoy sh. (**15230** ming nafar) va So'x tumanlari (**17734** ming nafar) hissasiga to'g'ri keldi.


# FARG'ONA VILOYAT UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga)



2021-yilda nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonini 2017- yilga nisbatan taqqoslaganda 4092 nafar o'quvchiga ko'paygan.

## Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2021/2022-o'quv yili boshiga)



Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni boshqa tumanlarga nisbatan yuqoriligi bo'yicha, Qo'qon, Farg'ona, Quvasoy shaharlari hamda Oltiariq, Rishton, va O'zbekiston tumanlari alohida o'ringa ega.

# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi, %  
(2021/2022-o'quv yili boshiga)



**48,7%**

**Qiz bolalar – 332.1  
ming nafar**



**51,3%**


**O'g'il bolalar – 350.5  
ming nafar**

Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan jami o'quvchilar **100 %** deb hisoblansa, shundan **48,7 %**ini qiz bolalar, **51,3 %**ini o'g'il bolalar tashkil etmoqda.

**Qiz bolalar,  
ming nafar**

**Hududlar kesimida o'quvchilarning  
gender bo'yicha taqsimlanishi, ming nafar**

**O'g'il bolalar,  
ming nafar**







# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalari bitiruvchilari (2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)

### 9-sinf bitiruvchilari



### 11-sinf bitiruvchilari




2021-yilda Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalarida 11-sinfni jami **47760** ming nafar o'quvchi tamomlagan. Tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona sh. **37,4** ming nafar o'quvchi to'g'ri kelgan, boshqa tumanlarga nisbatan past ko'rsatkich esa Quvasoy sh. ya'ni **9,6** ming nafar o'quvchi to'g'ri keldi.

Umumta'lim muassasalarining 9-sinfni **54413** ming nafar o'quvchi tamomlagan. Eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona sh. (**45,8** ming nafar o'quvchi) va to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich Quvasoy sh. (**12,2** ming nafar o'quvchi) to'g'ri keldi.


# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Umumta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yili boshiga jami **52908** ming nafar o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda, ushbu ko'rsatkichni 2017-yilga nisbatan taqqoslaganda (2017-yil **37341** ming nafar) 1,41 %ga oshgani kuzatildi. O'qituvchilarning 54,7 %i qishloq maktablarida, 45,3 %i shahar maktablarida faoliyat yuritmoqda.

## Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni (o'quv yili boshiga)




2021-yilda nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar sonini 2017-yilga nisbatan taqqoslaganda **4,8** nafar o'qituvchiga ko'payganligini kuzatish mumkin.

2017-yil 2018-yil 2019-yil 2020-yil 2021-yil

# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi, %da (2021/2022 o'quv yili boshiga)




**65,8 %**



**34,1 %**



# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushi\* (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari **332** ta (33,9%), ikki smenada **642** ta (65,7%), uch smenada **3** ta (0,3%) ni tashkil etdi. **Birinchi smenada 4134,6** ming, **ikkinchi smenada 2140,7** ming, **uchinchi smenada 4,6** ming o'quvchi tahsil olmoqda.

## Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinflar kesimida o'quvchilar soni (2021/2022 o'quv yili boshiga, ming nafar)




Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2021/2022-o'quv yili boshiga sinflar kesimida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni bo'yicha 2-sinfda **711430** ming o'quvchi bilan eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa, 11-sinfda **433340** ming o'quvchi bilan boshqa sinflarga nisbatan eng kam o'quvchiga ega sinf sifatida qayd etildi.

\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz


# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarida sinflarda  
o'quvchilarning o'rtacha soni, nafar\*  
(2021/2022 o'quv yili boshiga )



**Ma'lumot o'rnida:** O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Umumta'lim muassasalarida sinflar soni, ming birlik\*  
(2021/2022 o'quv yili boshiga )



Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida 2021/2022 o'quv yili boshiga jami sinflar soni **247,8** mingtani tashkil etdi.

\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida  
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

**FARG'ONA VILOYATIDA  
UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**


**Hududlar kesimda umumtalim muassasalarida tillar  
bo'yicha o'qitilayotgan o'quvchilar soni\*  
(2021/2022 o'quv yili boshiga)**

	Tillar bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar soni, nafar							
	o'zbek	Qoraqal -poq tili	Tojik tili	Qirgiz tili	Rus tili	Boshqa- lar		
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>603116</b>	-	<b>15275</b>	<b>489</b>	<b>53923</b>	<b>144</b>	-	-
Farg'ona sh	38262	-	-	-	21513	144	-	-
Qo'qon sh	36452	-	-	-	11768	-	-	-
Quvasoy sh	13265	-	-	148	1820	-	-	-
Marg'ilon sh	34253	-	-	-	6122	-	-	-
Oltiariq t	34737	-	-	-	2320	-	-	-
Qo'shtepa t	33476	-	-	-	672	-	-	-
Bag'dod t	39751	-	-	-	672	-	-	-
Buvayda t	41299	-	-	-	577	-	-	-
Beshariq t	39473	-	-	-	2164	-	-	-
Quva t	39600	-	-	-	1471	-	-	-
Uchko'prik t	40730	-	-	-	631	-	-	-
Rishton t	33102	-	-	-	2551	-	-	-
So'x t	2459	-	15275	-	-	-	-	-
Toshloq t	30832	-	-	-	408	-	-	-
O'zbekiston t	40967	-	-	28	1043	-	-	-
Farg'ona t	35291	-	-	313	396	-	-	-
Dang'ara t	29844	-	-	-	54	-	-	-
Furqat t	19183	-	-	-	-	-	-	-
Yozyovon t	20140	-	-	-	413	-	-	-

\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida  
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

# FARG'ONA VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TALIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## O'qitiladigan tillar bo'yicha umumtalim muassasalarining taqsimlanishi\* (2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)



Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yili boshiga o'zbek tilida barcha hududlarda mavjud. Tojik tilida – So'x tumanida, qirgiz tilida – Quvasoy sh, O'zbekiston tumani, Farg'ona tumanida umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar ta'lim bermoqdalar. Rus tilida ta'lim beruvchi o'qituvchilar umumta'lim muassasalari tumanlarning barcha hududlarida mavjud.

\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida  
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Umumta'lim muassasalari** – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

**Umumta'lim muassasasi** – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

**Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga** – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umum o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

**Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga** – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

**O'qituvchilar** – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

**Ta'lim muassasalarini bitirganlar** – ta'lim muassasasida o'quv kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik)ga ega bo'lgan shaxslar soni.

**Ta'lim muassasalariga qabul natijalari** – muayyan o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilinganlar soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.